

## **O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining Hay'ati haqida**

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 22 yanvardagi 37-son qarori bilan tasdiqlangan [“O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi to'g'risida Nizom”](#)ning 15-nchi bandi bo'yicha Iqtisodiyot vazirligida Iqtisodiyot vaziri (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra), shuningdek vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'at a'zolarining soni va shaxsiy tarkibi Iqtisodiyot vazirining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### **HAY'AT:**

- vazirlik faoliyatining mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini va kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni davom ettirish, makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotni barqaror, muvozanatlashgan va barqaror rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan chuqur ishlangan va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o'tkazish, ko'p ukladli va samarali faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiyotni shakllantirish, boy tabiiy va mineral-xomashyo resurslaridan, yaratilgan ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali va oqilona foydalanishga yo'naltirilgan aniq maqsadli tarkibiy siyosatni amalga oshirish, eksport imkoniyatini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyalashni ta'minlash, shuningdek yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat resurslarini ish bilan oqilona ta'minlash muammolarini hal etish, aholini aniq tarzda ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, aholi turmush darajasining barqaror, izchil o'sishini, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishini ta'minlash, mamlakat mintaqalari iqtisodiyotining mutanosib va kompleks rivojlanishini, ishlab chiqarish kuchlarining maqbul va samarali rivojlanishini hamda respublika hududlari bo'yicha joylashtirilishini ta'minlash yuzasidan ushbu Nizomda belgilangan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, ularning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun Iqtisodiyot vazirligi rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish kabi masalalarni ko'rib chiqadi.

Shuningdek, Hay'at Iqtisodiyot vazirligi vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

Hay'at majlisiga Iqtisodiyot vazirligi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at majlisida uning a'zolari tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari Iqtisodiyot vazirining buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Iqtisodiyot vaziri va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda, Iqtisodiyot vaziri paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi hay'at tomonidan tasdiqlangan reglament orqali belgilanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Hay'at a'zolarini tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 17 sentyabrdagi 206-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Hay'at a'zolarining ro‘yxati:

**Saidova Galina Karimovna** - Iqtisodiyot vaziri, Hay'at raisi;

**Xo‘jayev Botir Asadillayevich** - vazirning birinchi o‘rinbosari;

**Ismoilov Shuxrat Yaxyayevich** - vazir o‘rinbosari;

**Fayzullayev Shokir Nasibullayevich** - vazir o‘rinbosari;

**Shermatov Sa‘di Baxtiyarovich** - vazir o‘rinbosari;

**Turdiyev Dilmurod Raxmatjonovich** - vazir o‘rinbosari;

**Azimov Dilshod Suratovich** - Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va investitsiya dasturlarini shakllantirish bosh boshqarmasi boshlig‘i.